



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|----------------|--|
| 1. | B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. | Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. | G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. | X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. | U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. | D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. | G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. | Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. | Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. | N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. | M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. | S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILY QO'MITASI

- | | | |
|-----|-----------------|---|
| 1. | M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. | M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. | U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. | F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. | L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. | M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. | Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. | M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. | M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. | F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. | N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. | M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor
F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

I SHO'BA. ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTI MASALALARI

“TIB QONUNLARI “ASARIDA ZAHAR TAYYORLANADIGAN FITONIM NOMLARI

Hojiyeva Nigina Hayotovna

Buxoro davlat pedagogika instituti
o'zbek tili va adabiyoti kafedrası
dotsenti, filologiya fanlari doktori (PhD)

nigina_hojiyeva@buxdpi.uz

Ashurova Asaxon Barot qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti
2-bosqich magistranti

Annotatsiya .Ushbu maqolada Ibn Sino asarida keltirilgan ,tarkibida zahar olinadigan o'simlik nomlari keltirilgan bo'lib ,ushbu ma'lumotlar “Tib qonunlari“ kitobining 4- kitobi tarkibiga kiruvchi zaharli o'simlar haqidadir.Maqolani yozishda bu asarning eski SSSR nashridan foydalanildi.Bunga sabab eski nashrlarda asosan ma'lumot to'liqroq uchraydi. Quyida ma'lumotlari keltiriladigan asar Ibn Sino tavallud kunining 1000 yilligiga bag'ishlanadi. O'zbekiston SSR “Fan nashriyoti .Toshkent -1980- yil.

Kalit so'zlar .Qurun us-sunbul,qunuyun ,sambitgul,balozur, ayiq tovon ,tog' mayizi, yovvoyi gazago't,sofsiyo,safro o'ti,chin xabus-salotini, yovvoyi bodring ,sedana ,qora xarbaq,qirimdona,dala choy,kanakunjut,kunjut moyi, yovvoyi piyoz, “bo'ri bo'g'uvchi”, “qoplon bo'g'uvchi”, sholi qipig'I,qichitqi o't, qora turbot , surduniyun , tuniun , bangidevona urug'I , Mehriyoh ildizi, mingdevona , sassiqalaf , yomon ituzum , kashnich , arman o'qlari.

Ibn Sino bu asarida aytadiki, insonga zahar kimdir tomonidan berilishi shart emas. Uni insonning o'zi ham bilmasdan ichib qo'yishi yoki tanavvul qilib qo'yishi ehtimoldan holi hodisa emas. Shunday o'simlik turlari borki, biz ulardan aynan zahar tayyorlashimiz shart emas , balki ularni bilmasdan iste'mol qilib qo'yish orqali biz o'zimizni o'zimiz zaharlab qo'yamiz . Mashhur tabib bunday zaharlanish turlari hamda ulardan davolanish sirlari haqida “tib qonunlari”ning 4- kitobi 26- faslidan boshlab bir necha o'nlab fasllarini zaharli o'simliklar hamda ularda davo bo'ladigan malhamlarga bag'ishlagan. Quyidagilar shular haqidadir.

1.Qurun-us-sunbul. Buni ichgan kishida sarsom kasalligi belgilari yuzaga kelib boshlaydi. Til qorayadi,erlik olatidan qon tomchilay boshlaydi.(26- fasl ;440- bet).

2.Quniyun. Bu o'simlik haqida o'zim ham unchalik ma'lumotga ega emasman deydi Ibn Sino ham.O'zining aytishicha: “Ayrin taxminlarga ko'ra akonitga o'xshash narsa deb o'ylayman”deydi tabibning o'zi .

3. Yattularning sutlari. Bu o'simlik turning 7 xilini sanaydi tabib . Ular tanasidan sut chiqaradigan o'simliklardir deydi .Ulardan Ushar suti , log'iya suti, farfiyun sutlari eng zaharlilardir deydi.Hattoki yelimli yattu sutining bir tomchisi o'ldirish kuchiga, ushar sutining uch dirhami ikki kun ichida odamni o'ldirish kuchiga egadir.(31- fasl; 441- bet).

4. Saqmuniyo. Bu o'simlikdan tayyorlangan dori ikki dirham vaznda ichilsa , o'ldiradi. (32- fasl ; 441- bet).

5. Mozariyun va maxsar. Bu o'simlikdan tayyorlangan doridan ikki dirham miqdorda ichilsa , insonni o'lim darajasiga olib keladi. Uni ichgandan keyin odamda ko'p peshob chiqarish hodisasi yuz bera boshlaydi , tana suvsizlanib quriy boshlaydi. (33- fasl; 441-442- betlar).

6.Sambitgul. Bu o'simlikning ko'p miqdordagisi odamni va ot singari jonivorlarni narigi dunyoga jo'natadi.Sambitgul o'sadigan suvni ichib qo'ysak ham ushbu o'simlikdan zaharlanish hodisasiga duch kelishimiz ehimoli juda katta. (34- fasl;443- bet).

7.Balozur .Bu o'simlik ham zaharli o'simliklar sirasiga kirib , bundan tomoq va ichki a'zolarida parchalanish va alangalanish, shuningdek , o'tkir kasalliklar kelib chiqadi.(37- fasl;443- bet).

8.Ayiqtovon. Bu ham o'tkirligi sababli o'ldiruvchi dorilar sirasiga kiradi. Yog'lar buning ta'sirini qaytaruvchi narsalardandir.(39-fasl;443-bet;)

9.Yovvoyi gazago't.Buni ichgan kishining ko'zlari o'ynab chiqadi va unda kuyib yonish bilan alangalanish yuz beradi. (40-fasl; 443- bet).

Ibn Sino turli xil zaharli o'simliklardan zaharlanganda asosan turli yog'lar davo bo'lishini aytadi. Chunki yog'larda odamni qustirish xususiyati bo'lib , zahar tomoq yo'li orqali tashqariga chiqib ketadi . Lekin bu hamma turdagi zaharlanishlar uchun birdek amal qilmaydi. Shunday zaharli o'simliklar borki ularni qayt qilgan inson tomoq yo'llarini ham kuydirib yuborish xususiyatiga egadir.

10. Sofsiyo. Bu tog' gazago'tining yelimidir.Buni tatib ko'rgan kishi tog' qora rayhonining ta'mi kabi maza sezadi. U o'tkir zahardir Uni ichish natijasida har ikki yo'ldan keladigan narsa to'xtaydi; til shishadi , tomoq hamda medada achishish hissi yuzaga keladi. (42- fasl ;444- bet).

11.Safroo't. Uning belgilari va davosi yetmak va qora xarbaq belgilari va davolarining o'zidir - deydi ibn Sino.(44- fasl; 444-bet;).

12.Qora xarbaq . Bundan qattiq ich surish va bo'g'ilish paydo bo'ladi., undan ikki dirhami ichilsa ,tirishtirib o'ldiradi. (48-fasl; 445-bet).

13.Kirmdona . Buning ikki dirhamini ichishdan qichima va shish paydo bo'lib , keyin u o'ldiradi.Buning davosi farfiyun ichganni davolash kabidir. (50-fasl ;445-bet;).

14.Dalachoy urug'I . Bundan ko'p ichilsa , o'ldiradi.Buni bilib o'tganlaringga muvofiq qustiruvchi,ich suruvchi dorilar, sut va yog'liq narsalar bilan davolanadi. (51- fasl ; 446-bet;).

15.Kanakunjut va kunjut kunjarasi. Aytilishicha , bu ikkalasini juda qattiq siqib , olingan narsa o'ldiruvchi zahardir . Buni umumiy ishlatiladigan dorilar bilan davolanadi.

16.Yovvoyi piyoz . Buni iste'mol qilinsa va yaxshi xilini ko'p yeyilsa ham ichaklar va jigar kanallari yaralanadi, bundan oldin ich burib og'rish va burdalangandek og'riq seziladi. (55-fasl; 99446- bet;).

17.Sholi qipig'i. Eng qadimgi tabiblardan birining aytishicha, sholi qipig'I ichirilgan kishining og'iz va tilida o'sha zahotiyoq og'riq paydo bo'lib , tili shishadi, keyin og'riq qizilo'ngach ,meda va ichaklarga boradi, butun badani alangalanadi .Buni zaharlar qatoriga kiritganlar. (60- fasl ;447- bet;).

18.Mehrigiyoh ildizi . Bundan bangidevona mevasi iste'mol qilingandagi belgilar ,litargiya ,qichima ,kuzoz va karlik kabi holatlar yuz beradi. (78- fasl; 451- bet;)

Bobur o'zining "Boburnoma " asarida mehrigiyoh o'simligi haqida ma'lumot keltiradi. Unda Bobur bu o'simlikning ko'pgina kasalliklarga davo ekanligini aytadi.

Xulosa qilib aytganda shuni ta'kidlash joizki, o'simliklarning foydali jihatlari bilan bir qatorda inson salomatligi uchun zarar keltiradigan jihatlari juda ham ko'p sanaladi.Ularning hammasidan ham dori darmon sifatida foydalanilmaydi . Birgina mehrigiyoh o'simligi tabobatda mehrigiyoh sifatida ishlatilsa ,uning ildizidan kuchli zahar sifatida foydalanish mumkin. Oddiygina biz foydali deb biladigan ,kundalik iste'molimizda ko'p ishlatadigan ho'l kashnich agar me'yoridan ko'p tanavvul qilinsa,bosh aylanib,ko'z tinadi ,aql qorishadi,tovush yo'g'onlashadi, og'ir uyqu va mastlikdagi holat yuz beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev. Sh, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining2020-yil 10-apreldagi PQ-4670-son qarori, Lex.uz

2. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari, 1-kitob.Toshkent.Fan.1983.

3.Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari, II kitob.Toshkent.Fan.1980.

4.Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari, III kitob.Toshkent.Fan.1982.-417 b.

3. Hojimatov Q., Olloyorov M ., O'zbekistonning shifobaxsh o'simliklari va ularni muhofaza qilish, T., 1988;

4. Hojimatov Q., Yo'ldoshev K., Shog'ulomov U., Hojimatov O ., Shifobaxh giyohlar dardlarga malham (Fitoterapiya), T., 1995;

5. Nabiye M, Shifobaxsh giyohlar, T., 1980;

6. Prator . O'. P, Nabiye . M.M. O'zbekiston yuksak o'simliklarining zamonaviy tizimi. Toshkent . O'qituvchi-2007

7. Hojiyeva, N. Comparative analysis of fruit names in Uzbek and Turkish proverbs. "international journal of artificial intelligence" in American Academic publishers, volume 05, issue 03, 2025
8. <https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai>
9. Hojiyeva, N Ashurova Asalkhon Barot qizi. The use of plant and fruit names as medical terms. Journal of Iqro –volume 14, issue 02, 2025. ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245, SJIF – 5,431
10. Explanatory dictionary of the Uzbek language. 5 volumes. Volume 2. – T.: UzME, 2006. – p. 582
11. Hojiyeva N. SOME COMMENTS ON THE POMEGRANATE LEXEMA //CENTER FOR SCIENTIFIC PUBLICATIONS (buxdu. uz). – 2021. – T. 6. – No. 6. 5.
12. Yuldasheva D.N., Khojiev N.K., Yusupova D.Y. Fruit vocabulary is an integral part of the vocabulary of the folk language //Herald pedagogy. Science and practice. - 2021. - T. 1. – no. 2.